ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Резюме. В этой статье были проанализированы идиомы, которые используются вместе с названиями птиц на узбекском и иностранных языках, и подготовлены выводы с точки зрения автора. Цель - донести до будущих поколений носителей языка идиомы и их значение в речевых ситуациях и обобщить информацию об этих единицах.

Resume. This article analyzes idioms that are used with bird names in Uzbek and foreign languages, and provides conclusions from the author's perspective. The purpose of this is to convey idioms and their importance in speech situations to future language carriers and to summarize information about these units.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MATN KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TAHLILINING ASOSIY TAMOYILLARI

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,
University of Business and Science dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Hamrayeva Yorqinoy Nabijanovna,
Qarshi dablat universiteti professori v.b.

Matn – mazmunan bog'langan belgi birliklari (знаковых единиц) ning ketma-ketligi bo'lib, uning asosiy xususiyatlari mantiqiy va mazmuniy aloqadorlik, to'liqlik, yakunlanganlik, intonatsion yaxlitlikdan iboratdir. Fanda matnni tushunishga doir turlicha qarashlar mavjud. Ular, eng avvalo, bu tushunchaning semiotik va tilshunoslik yondashuvlari orqali talqin etilishi bilan bog'liq bo'ladi. Semiotika nuqtayi nazaridan matn bu mazmuniy ketma-ketlikdagi har qanday belgilardir (bu so'zlarda ifoda etilgan asar ham, musiqiy asar ham, rassomchilik namunasi ham, me'moriy obida ham bo'lishi ham mumkin); tilshunoslikda esa matn bu verbal belgilar ketma-ketligi[1] sanaladi va sohaning markaziy tushunchalaridan sifatida ushbu fanning har qanday aspektida lisoniy birliklarning turli qirralarini yoritishda, muayyan tilning ifoda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda, aloqa-aralashuv jarayonida eng muhim manbadir.

Til falsafiy jihatdan gnoseologik va ontologik tabiatga ega bo'lgan murakkab fenomendir [2]. Nutq esa tilning reallashuv jarayoni, matn ana shu nutqiy faoliyatning mahsuli, shakliy va mazmuniy yaxlitlikka, tugallikka ega bo'lgan kommunikativ hodisa sanaladi. Matn turlari orasida badiiy matn o'ziga xos xususiyatlarga ega. Badiiy matn tilshunoslikning eng murakkab, ko'p qirrali tekshiruv obyektidir. Chunki u bir necha leksik, grammatik va stilistik sistemalar yig'indisi – sistemalar sistemasidan iboratdir. Badiiy matn bilish va yaratish, aks ettirish va ijodning dialektik birligi asosida vujudga keladi[3]. Badiiy matn – inson borlig'ining til orqali reallashuvi, inson meninig ro'yobga chiqish shakli[4] hisoblanadi. Darhaqiqat, badiiy matn voqelikni badiiy idrok etish va ifodalash mahsuli bo'lib, muallifning muayyan maqsadi, g'oyasi, ijodiy fikrlari tizimi asosida shakllanadi va tilning

[1] Маслова А. Введение в прагмалингвистику. − Москва: Флинта. − С. 25.
[2] Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари.−Тошкент: Академнашр, 2010.− Б. 5.
[3] Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро: Бухоро университети, 2000. – Б. 9.
[4] Ёқубов И. Бадиий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: Фан ва технология нашриёти, 2013. – Б. 4.

tasviriy vositalari, lug‘at boyligi, pragmatik imkoniyatlarini to‘la namoyon qila oladi. Aynan shuning uchun ham badiiy matnni pragmatik sistema sifatida qayd etishimiz mumkin. Shakl va mazmun uyg‘unligiga ega bunday matnda ta’sirlilik birinchi darajali masalaga aylanadi. Badiiy matnning vazifasi tasvirlash, kitobxonga estetik va ruhiy ta’sir ko‘rsatish asosida muayyan voqelikka, voqelik ishtirokchilariga nisbatan munosabatni shakllantirish hisoblanadi. Mukammal yaratilgan badiiy matnning eng muhim, boshqa matn turlaridan farqli xususiyatlari sifatida ifoda usulining betakrorligi, muayyan maqsad va g‘oyani ifodalash uchun yaratilgani, ruhiy, estetik, didaktik ta’sir ko‘rsatishning kuchliligini ko‘rsatish mumkin. Muallif badiiy matn yaratish jarayonida barcha ijodiy, aqliy, intellektual, lisoniy imkoniyatlarini safarbar etadi va uning o‘ziga xos individual uslubi ham badiiy matn tuzilishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik adabiyotlardan ma’lumki, XX asrning 80-yillaridan tilshunoslarning asosiy e’tibori gapdan katta birliklar masalasiga qaratila boshlandi. Jahon tilshunosligida I.Galperin[1], I.Kupina[2], N.Shanskiy[3], O.Moskalskaya[4], L.Novikov[5]larning, o‘zbek tilshunosligida G‘.Abdurahmonov[6], A.G‘ulomov, M.Asqarova[7]larning ilmiy tadqiqotlari bu borada amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi va matn tilshunosligining shakllanishi hamda rivojlanishiga zamin yaratdi. A.Mamajonov[8], B.O‘rinboyev[9], J.Lapasov[10], E.Qilichev[11], M.Yo‘ldoshev[12] va shu kabi qator tilshunoslar tomonidan matnning turli qirralari tahliliga bag‘ishlangan samarali tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, A.Mamajonovning «Tekst lingvistikasi» qo‘llanmasida o‘zbek tilshunosligida ilk marta matn nazariyasi bo‘yicha ma’lumotlar berildi. Olim mazkur qo‘llanmada matnga bir necha xil sistemalar kompleksidan iborat bo‘lgan sintaktik hodisa sifatida yondashadi. Uni o‘zaro aloqador bo‘lgan morfologik birliklar yig‘indisidan iborat bo‘lgan murakkab struktura deb ham atash mumkinligini ta’kidlagan holda morfologik sistema sifatida tushunilishini, o‘zida bir necha leksik birliklarni mujassamlashtirgan eng yirik nutq birligi sifatida esa bir butun leksik sistemani shakllantirishini, shuningdek, matn bir vaqtning o‘zida sintaktik sistema, semantik sistema hamda stilistik usullar sistemasi hisoblanishi ham mumkinligini, shu jihatdan olganda matn sistem tilshunoslikning eng murakkab, ko‘p qirrali tekshiruv obyekti hisoblanishini aytadi[13]. A.Mamajonov matn tilshunosligi borasidagi izlanishlarini rivojlantirib, M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda «Matn nazariyasi» qo‘llanmasini ham nashr ettirdi. Mazkur qo‘llanmada o‘zbek matn tilshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, bu sohada yosh tadqiqotchilar oldiga qo‘yilayotgan dolzarb vazifalar, matn birliklari va ularning sintaktik, semantik va uslubiy jihatlari ilmiy asosda yoritib berilgan [14]. J.Lapasov esa matnga vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlik, murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo‘lgan og‘zaki va yozma ijod namunasi sifatida qarab, uning tuzilishi, turlari, o‘ziga xos belgilari masalasini yoritadi [15].

Mazkur maqolada pragmatik tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Har bir ijodkor olamni o‘z bilimi va dunyoqarashi, tafakkuri, kechinmalaridan kelib chiqib subyektiv tarzda anglaydi va muayyan mavzudagi voqea-hodisaga badiiy-estetik munosabat bildiradi. Bu munosabatni o‘z individual uslubiga xos tarzda til vositalari orqali aks ettiradi va o‘quvchining dunyoqarashiga, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

She’riy va nasriy badiiy matnlarning lingvistik tadqiqi til sathlari birliklari tahlili bo‘yicha amalga oshiriladi. Badiiy matnning lingvistik tahlilida, asosan, til ifoda vositalarining matn tuzilishidagi ahamiyati, badiiy nutq turlari, uslubiy vositalar, ma’no ko‘chish usullari, badiiy asar leksikasi kabi masalalarga alohida e’tibor beriladi. Masalan, G‘afur G‘ulomning «Vaqt» she’rini lisoniy tahlil qilar ekanmiz, shoir *vaqt* so‘zining 10 ta sinonimi: *fursat, soat, on, lahza, bir zum, yil, payt, sekund, muddat, bir nafas* so‘zlarini qo‘llaganini, bu

[1] Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981.
[2] Купина И.А. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва, 1980.
[3] Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Ленинград, 1990.
[4] Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва, 1981.
[5] Новиков Л.А.Художественный текст и его анализ. – Москва: ЛКИ, 2007. – 304 с.
[6] Абдураҳмонов Ғ. Теория текста. (Доклад на III Всесоюзной тюркологической конференции.) // Советская тюркология, 1981. –№1. – С. 93.
[7] Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
[8] Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент: Низомий номли педагогика институти нашриёти, 1989.
[9] Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
[10] Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 87 б.
[11] Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, Бухоро университиети, 2000. – 36 б.
[12] Йўлдошев М., Исақов З., Ҳайдаров Ш. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 112 б.
[13] Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент, 1989. − Б. 8.
[14] Қаранг: Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. – Фарғона, 2016. – 112 б.
[15] Қаранг:Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 88 б.

so‘zlar sinonimik tizma hosil qilganini, sinonimik qatordagi har bir so‘z o‘ziga xos ma’noviy xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shoir ijodida poetik, jonli xalq tiliga oid, dialektal, arxaik, qardosh tillarga oid, neologik sinonimlar mavjud[1]. Badiiy asarga lingvopoetik, uslubiy va leksik-semantik nuqtai nazardan yondashish ko‘proq tasvir vositalarining til xususiyatlari va obrazli ifoda hosil qilishdagi ahamiyati, adibning so‘z qo‘llash mahoratini ochib berish, leksik va grammatik vositalarning sinonimiyasi, uslubiy qo‘llanish doirasini tahlil etish, leksik-semantik tasniflashga imkon beradi. Badiiy matnning pragmatik tahlilida ham shu bilan ayrim mushtarak jihatlar mavjud. Ayniqsa, uslubiyat va pragmalingvistika o‘rtasida aloqadorlik kuchli. Lekin pragmalingvistikada tadqiqot obyekti nafaqat til sathlari birliklari bo‘yicha, balki nutqiy muloqot tamoyil va asoslaridan kelib chiqqan holda tahlil qilinadi. Zero, pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganiladi [2]. Pragmatik tahlil qahramonlar ruhiyati va muloqot xulqi, tilning pragmatik imkoniyatlari, tasvirlanayotgan zamon va makon, voqelikka muallif munosabatining til vositalari orqali yuzaga chiqishi, ifodadagi birlamchi va ikkilamchi ma’nolar, nutqiy qo‘llanishlarning shaxs, nutqiy vaziyat, pragmatik kontekst kabi omillar bilan bog‘liqligi masalalarini yoritishga yordam beradi. Bunda har bir nutqiy ifoda nima uchun, qanday maqsadda reallashganini aniqlash muhim. Shunga muvofiq, badiiy matn pragmatikasi termini ostida muallif va asar qahramonlari nutqidagi turli til vositalari yordamida ifoda etiladigan, o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan va o‘quvchi tomonidan bu til vositalarining keng talqin etilishiga mo‘ljallangan muallif maqsadlarining jamlanmasi tushuniladi[3]. Badiiy matn pragmatik tahlilida muallif va qahramonlar nutqiga oid oshkora va yashirin maqsad (intensiya), nutqiy taktika, pragmatik ma’noning ifodalanish usul va vositalari, pragmatik presuppozitsiya, fikrga qo‘shimcha tarzda ifodalangan modal munosabatlar kabi masalalar diqqat markazida bo‘ladi. Aynan shundan kelib chiqqan holda badiiy matn pragmatik tahlilida quyidagi mezonlarni qayd etishimiz mumkin:

Birinchidan, badiiy matnda qo‘llangan turli sathga oid til birliklarining muallif maqsadi (intensiyasi)ga mosligi aniqlanadi. Tilning barcha sathlariga oid birlik va vositalar muallifning ichki maqsadiga muvofiq tarzda qo‘llansa, badiiy asarning shakliy va mazmuniy yaxlitligi ta’minlanadi. Nutq murakkab va serqirra jarayon bo‘lib, bunda tilning barcha sathlariga oid birliklar uyg‘un tarzda muallif maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Masalan: *Xuddi shu oraga Yo‘ldosh shilqim suqildiyu, ishning pachavasini chiqardi* (G‘. G‘ulom «Shum bola»). Jumladagi barcha lisoniy vositalar salbiy munosabat ifodalashga yo‘naltirilgan. *Suqilmoq* so‘zi *bezbetlik, xiralik bilan biror jamoaga kirib olmoq* ma’nosini konnotativ tarzda ifodalamoqda. Laqab sifatida qo‘llangan *shilqim* so‘zi va *ishning pachavasini chiqarmoq* frazeologizmi bilan birga *xuddi shu oraga* birikmasi orqali tavsiflangan *kutilmaganlik* nutqiy vaziyatiga hamda vaziyat ishtirokchisiga qahramonning salbiy subyektiv bahosini bo‘rttirib ifodalamoqda.

Ikkinchidan, badiiy matnning pragmatik potensiali (ta’sir kuchi), emotsional-ekspressivligi va uni yuzaga chiqaruvchi vositalar tahlil qilinadi. Badiiy matnning boshqa matn turlaridan farqli jihati ham emotsional-ekspressivlikning kuchli ifodalanishi, tasvirlanayotgan voqelikning kitobxon his-tuyg‘ulariga ta’sir etishi, to‘lqinlantirishi, muayyan obyektga nisbatan ijobiy yoki salbiy pozitsiyani shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Badiiy matnning ta’sir kuchi informativlikning emotsionallikka yo‘g‘rilganida ko‘rinadi. She’riy matn yuqori darajadagi emotsionallik mahsuli va ifodasi sanalsa, nasriy matnda ham his-tuyg‘u ifodasi va ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu esa matnning pragmatik ta’sir kuchini tashkil etadi. Masalan, undov so‘zlar his-tuyg‘uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun qo‘llanadi: *E, tavba-e, etim jimirlashib ketdi-ya...E, tavbae, ota-onang g‘ozmidi, haromi?* («Shum bola»)

Nasriy matnda qahramonlar qiyofasini tasvirlashda emotsionallik kuchli ifodalanadi. Ayniqsa, ayollar timsollarini tasvirlashda emotsionallik yuqori darajaga ko‘tariladi. G‘afur G‘ulomning «Yodgor» qissasida Mehrixon, Saodat, «Qizaloq», «Cho‘tir xotinning toleyi» hikoyalarida asosiy qahramonlar tasvirida nutqiy vaziyat bilan bog‘liq tarzda ijobiy emotsional baho va munosabat bildiruvchi til birliklari, o‘xshatishlar faol qo‘llanadi. Masalan, «Yodgor» qissasida Jo‘ra tilidan Mehrixonga nisbatan bir qator o‘xshatishlar ishlatiladi. *Baxt yo‘llariday oq va keng manglayda marvarid donalariday ter. Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi...Qiz borib ayvon dahanasiga o‘tirdi. Men uning ro‘baro‘sida – ariq labida cho‘nqaydim...Qiz marmarday bilaklarigacha shimarib qo‘yilgan ko‘ylak yenglari orasidan kichik ro‘molchasini olib, burun uchlari, dudoq ustlariga qo‘ngan shabnamday toza terlarni arta boshladi* (G‘. G‘ulom «Yodgor»).

[1] Эгамбердиева Ш. Ғафур Ғуломнинг шеърий асарлари тилини ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 20.
[2] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 75.
[3] Почепцов Г. Прагматика текста. – Калинин, 1980. – С. 8.

Uchinchidan, muallifning o‘ziga xos uslubi, muloqot strategiyasi va til birliklarini pragmatik omillarga mutanosib qo‘llanishi bilan bog‘liq xususiyatlarni o‘rganiladi. Masalan, G‘afur G‘ulomning «Shum bola» qissasi til nuqtayi nazaridan mukammal ishlangan mumtoz badiiyat namunalari qatorida tura oluvchi asarlardan bo‘lib, umumxalq tilidan foydalanish mahoratining betakror namunasi sanaladi. Shum bola nutqida qo‘llangan o‘nlab ism va laqablar, xarakter ifodalovchi so‘zlar asardagi asosiy qirrani – yumoristik ruhni ifodalash vositasi bo‘lgan [1]. Masalan, *Asra kal, It Obid, Bit Obid, Xolparang jinni, Yo‘ldosh shilqim, Po‘latxo‘ja mug‘ombir, Abdulla do‘lvor, Salmon pok, Ilyos bo‘rdoqi* kabi. Adibning boshqa nasriy asarlarida ham qahramonlar ismiga laqab tirkab qo‘llash holati ko‘p kuzatiladi. Masalan, *Mirjalol quruq, Sattorqul sarkor, Orif sassiq, Hasan Kayfiy, Tolib so‘fi, Husni baqqol, Sa’di xalfa, Maston bo‘zagar, Badal novcha, Miryoqub qovoq, Soyibnazar qo‘ychi* kabi laqab tirkab qo‘llangan ismlar qissada anchagina bo‘lib, har bir laqabning qo‘llanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar uyg‘unligi kuzatiladi. Ekstralingvistik omillar sirasiga tasvirlanayotgan qahramonning jismoniy, ijtimoiy holati, sajiyasi, boshqalardan ajratib turuvchi xususiyati kirsa, lingvistik omillar qatoriga ana shu xususiyatlarni bo‘rttirib ko‘rsatuvchi til birliklari, ma’no ko‘chish usullari, qiyoslash kabilarni kiritishimiz mumkin.

To‘rtinchidan, nutqiy aktlarning pragmatik mazmuni: ma’noning oshkora yoki yashirinligi, yashirin ma’noning ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Masalan:

– Shunaqa deng, – dedi podsho o‘smoqchilab. – Xo‘sh, bu mamlakatning podshosi kim, adolatli podsholardanmi?

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, bir xotinining ismi Adolat deb eshitganim bor (G‘. G‘ulom «Hasan Kayfiy»). Kontekstda Hasan Kayfiy nutqida podshoning adolatsizligiga yashirin ishora va kinoya mavjud.

Beshinchidan, badiiy matnda nutqiy odob, nutqiy odat, nutqiy aralashuv birliklarining qo‘llanishi masalasi o‘rganiladi. Masalan:

Ichkaridan:

– Marhamat, kiravering, bu eshikning qulfu zanjiri yo‘q, marhamat, – degan ovoz keldi.

...Podshoning savlati uni dovdiratib qo‘ydi shekilli, qanday iltifot qilishni ham bilmay elovsirab:

– Xizmat, taqsir, xizmat? – der edi...

– Qani, marhamat, o‘z uylaridek bemalol o‘tirsinlar...(G‘. G‘ulom «Hasan Kayfiy») Hasan Kayfiy nutqida o‘zbekona mehmondo‘stlikni ifodalovchi nutqiy odob vositalari, nutqiy odat birliklari qo‘llangan va iltifot nutqiy aktini yuzaga keltirgan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, matnni pragmatik aspektda o‘rganish til vositalaridan samarali va o‘rinli, unumli foydalanish asoslarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun pragmalingvistik tahlilda til vositalari nima uchun aynan shunday qo‘llanganligi, nutqiy qo‘llanishning samaradorligi va natijaviyligi qanday amalga oshganligi masalalariga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Shuningdek, badiiy matn pragmatikasida til birliklari, nutqiy vositalar, usullarning emotsionallik va ekspressivlikni ifodalashi, qo‘shimcha, yashirin, ammo muhim ta’sirga ega axborot va ma’nolarni aniqlash asosiy masalalardan sanaladi.

Резюме. В данной статье рассматриваются текст, его лингвистические особенности, языковые средства, усиливающие выразительность поэтических и прозаических художественных текстов. Раскрываются основные принципы коммуникативно-прагматического подхода к анализу текста, а также различия этого метода анализа от других видов лингвистического анализа.

Resume. This article discusses the text, its linguistic features, and the linguistic devices that enhance the expressive effectiveness of poetic and prose literary texts. It also explains the main principles of the communicative-pragmatic approach to text analysis and highlights how this method differs from other types of linguistic analysis.

[1] Улуқов Н. “Шум бола” қиссасидаги библионим ва антропонимлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. – № 3. – Б. 67.